



UO'K 101.1: 323/324(470+571)

Risolat SADILLOYEVA,
SamDChTI "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrası dotsenti
Xurshida BOBOQULOVA,
Ingliz tili fakulteti talabasi
E-mail: hurhidabobokulova1980@gmail.com

"Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti dots. professor v.v.b. M.Sidokova taqrizi asosida

XUSUSIY SEKTOR VA FUQAROLIK JAMIYATINING TARAQQIYOTI, SHAKLLANISH BOSQICHLARI VA RIVOJLANISH JARAYONI

Annotatsiya

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi, uning dastlabki namoyon bo'lishi va taraqqiyot bosqichlari tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etiladi. Xususiy mulkchilik hamda nodavlat institutlarining rivojlanishi, ularning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlardagi o'rni hamda turli tarixiy davrlarda davlat tomonidan qanday qabul qilinganligi yoritiladi. Maqolada o'zbek jamiyatida fuqarolik institutlarining shakllanish jarayoni, xususiy sektorning iqtisodiy taraqqiyotga qo'shgan hissasi va mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba va tarixiy o'zgarishlar asosida fuqarolik jamiyati hamda xususiy sektorning istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Xususiy sektor, fuqarolik jamiyati, nodavlat institutlari, tarixiy taraqqiyot, iqtisodiy islohotlar, davlat va jamiyat munosabatlari, mustaqillik yillari.

РАЗВИТИЕ ЧАСТНОГО СЕКТОРА И ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА, ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И ПРОЦЕСС РАЗРАБОТКИ

Аннотация

Формирование гражданского общества, его первоначальные проявления и этапы развития анализируются в тесной связи с историческими процессами. Освещается развитие частной собственности и негосударственных институтов, их роль в экономических и социальных процессах, а также отношения государства к этим институтам в различные исторические периоды. В статье подробно рассматриваются процесс становления гражданских институтов в узбекском обществе, вклад частного сектора в экономическое развитие и результаты реформ, проведенных в годы независимости. Кроме того, на основе международного опыта и исторических изменений анализируются перспективы дальнейшего развития гражданского общества и частного сектора.

Ключевые слова: Частный сектор, гражданское общество, негосударственные институты, историческое развитие, экономические реформы, отношения государства и общества, годы независимости.

DEVELOPMENT OF THE PRIVATE SECTOR AND CIVIL SOCIETY, STAGES OF FORMATION AND DEVELOPMENT PROCESS

Annotation

The formation of civil society, its early manifestations, and stages of development are analyzed in close connection with historical processes. The development of private ownership and non-governmental institutions, their role in economic and social processes, as well as the state's attitude towards these institutions in different historical periods, are examined. The article provides a detailed analysis of the formation of civil institutions in Uzbek society, the contribution of the private sector to economic development, and the outcomes of reforms implemented during the years of independence. Furthermore, based on international experience and historical changes, the prospects for the future development of civil society and the private sector are discussed.

Key words: Private sector, civil society, non-governmental institutions, historical development, economic reforms, state and society relations, years of independence.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining roli muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan davlatlarda xususiy sektor iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lsa, fuqarolik jamiyati ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va demokratiyani mustahkamlashning asosiy institutlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonning barqaror rivojlanish jarayoniga qo'shgan hissasi mamlakatning mustaqillikdan keyingi taraqqiyot yo'li bilan chambarchas bog'liq. 1991 yilda mustaqillikka erishgach, O'zbekiston jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolik institutlarini rivojlantirish va barqaror iqtisodiyotni shakllantirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni boshladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Quyida "Xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining taraqqiyoti, shakllanish bosqichlari va rivojlanish jarayoni" mavzusiga oid adabiyotlarning har biriga alohida tahlil keltirilgan:

"Добровольный национальный обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года (второй)" ("O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish milliy maqsad va vazifalarini amalga oshirish bo'yicha ikkinchi ixtiyoriy milliy sharh") Ushbu rasmiy hujjatda O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha bo'lgan barqaror rivojlanish maqsadlari va vazifalarini amalga oshirish bo'yicha ikkinchi ixtiyoriy milliy sharhini taqdim etadi. Unda xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, ularning

barqaror rivojlanishdagi o'rni va ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hujjatda davlat va nodavlat tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlik, xususiy sektorning iqtisodiyotdagi roli va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy hayotdagi ishtiroki tahlil qilinadi[1].

История НКО в США Блог посольства США в Москве ("Nodavlat notijorat tashkilotlarining AQShdagi tarixi" – AQShning Moskvadagi elchixonasi blogi") - Ushbu maqolada AQShdagi nodavlat notijorat tashkilotlarining (NNT) shakllanishi va rivojlanish tarixi keng yoritiladi. Shuningdek, NNTlarning AQSh jamiyatidagi o'rni, ularning demokratik jarayonlardagi ishtiroki va jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hisssasi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Bu maqola orqali boshqa davlatlardagi fuqarolik jamiyatining rivojlanish tajribasini o'rganish mumkin[2].

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi "Byudjetnoma 2024-2026", "Byudjetnoma 2024-2026" hujjati orqali O'zbekiston Respublikasining 2024-2026 yillarga mo'ljallangan davlat byudjeti va moliyaviy siyosatini aks ettirilgan. Unda xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy choralar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hujjat iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilovchi tarixiy faktidir[3].

Fuqarolik jamiyati: tushunchasi, tuzilishi, funksiyalari (Гражданское общество: понятие, структура, функции) nomli maqolada fuqarolik jamiyatining asosiy tushunchalari, tuzilishi va funksiyalarini yoritadi. Fuqarolik jamiyatining demokratik jamiyatdagi o'rni, uning tarkibiy qismlari va bajaradigan vazifalari haqida batafsil ma'lumot beradi. Maqola fuqarolik jamiyatining nazariy asoslarini o'rganishda foydali manba hisoblanadi[4].

S.Sanovich. "Yevropa va AQShda fuqarolik jamiyati va NNTlarni o'rganish (qisqacha sharh) (Санович С. Исследования гражданского общества и НКО в Европе и США (краткий обзор). Материал подготовлен специально для информационно-аналитического портала "Socpolitika.ru") nomli maqolada esa Yevropa va AQShdagi fuqarolik jamiyati va nodavlat notijorat tashkilotlarini o'rganishga bag'ishlangan qisqacha sharhni taqdim etadi. Muallif turli mamlakatlardagi fuqarolik jamiyatining rivojlanish xususiyatlari, NNTlarning jamiyatdagi roli va ularning faoliyatini tahlil qiladi. Maqola xalqaro tajribani o'rganishda muhim manba hisoblanadi[5].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oila masalalari vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni (Национальная база данных по законодательству Республики Узбекистан. Указ Президента Республики Узбекистан «Об организации деятельности Министерства по поддержке махалли и семьи Республики Узбекистан».) - Ushbu farmon O'zbekiston Respublikasida Mahalla va oila masalalari vazirligining tashkil etilishi va uning faoliyatini tartibga solinganligi va fuqarolik jamiyatining muhim instituti bo'lgan mahallaning jamiyatdagi o'rni, uning funksiyalari va vazifalari haqida ma'lumot beradi. Shuningdek, Farmon mahalla institutining rivojlanishiga qaratilgan davlat siyosatini aks ettiruvchi asos hisoblanadi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. "Xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining taraqqiyoti, shakllanish bosqichlari va rivojlanish jarayoni" mavzusidagi maqolani yoritishda tarixiylik, ob'ektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, sabab-oqibat (kauzal) tahlili, tizimli tahlil hamda qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar yordamida mavzu tarixiy izchillikda o'rganilib, faktlarga asoslangan xolis tahlil amalga oshirildi, umumiy nazariy tushunchalardan aniq misollar va dalillarga tayangan holda mavzuning mazmuni chuqur ochib berildi. Shuningdek,

rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar va ularning oqibatlari o'rganilib, xususiy sektor va fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi hamda xalqaro tajriba bilan solishtirish orqali O'zbekiston sharoitiga xos xususiyatlar aniqlab berildi. Bularning barchasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligi va kompleks yondashuv asosida olib borilganini ta'minladi.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, xususiy sektor rivojlangani sari jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish jarayoni ham kuchayib boradi. Bu holat ayniqsa rivojlangan kapitalistik davlatlarda, jumladan, AQSHda yaqqol namoyon bo'ladi. O'tgan o'n yilliklarda AQSHda yuqori sinf vakillarining tez boyib borishi kuzatildi. Tadqiqotlarga ko'ra:

- AQSH aholisining 0,1-0,2 foizini tashkil qiluvchi 200 mingdan 400 minggacha odam kamida 10 million dollarga teng mulkka ega bo'lib, yiliga bir necha million dollar daromad olgan;

- 200 ming nafarga yaqin oliy sinf vakillari yiliga 5-10 million dollar, yana 300 mingtasi esa 2-5 million dollar yillik daromadga ega bo'lgan.

AQSHda taxminan 1,5 mln.ga yaqin NNT faoliyat yuritadi. NNT jamiyatning hamma sohalarini o'ziga qamrab olgan bo'lib, ular tashqi siyosat, saylovlar, atrof-muhitni himoya qilish, sog'liqni saqlash, ayollar huquqi, iqtisodiy rivojlanish, yoshlar va qariyalarni ijtimoiy himoya qilish kabi yo'nalishlarda aholining manfaatlari va ehtiyojlarini ifoda etadi va himoya qiladi. Shuningdek, NNT siyosat bilan bog'liq bo'lmagan, masalan, diniy tashkilotlar, kasaba uyushmalari, ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari – qashshoqlar, ruhiy kasallar, yoshlar kabilarga yordam berish faoliyati bilan shug'ullanadi. AQSHdagi NNT faoliyati xususiy shaxslar, xususiy sektordagi tijorat kompaniyalari, xayriya jamg'armalari, a'zolik badallari yoki federal va mahalliy hokimiyat organlari (grantlar) kabilar tomonidan moliyalashtiriladi.[2]

O'zbekistonda ham mustaqillik yillaridan beri fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinish bilan bir qatorda NNTlarning faoliyatini qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy asoslarini mustahkamlash va davlat bilan hamkorligini rivojlantirish borasida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Jon Xopkins universiteti tomonidan ilgari surilgan tasnif asosida O'zbekistonda ham NNTlar quyidagi 12 loyiha yo'nalishi bo'yicha faoliyat olib borilgan bo'lib, bular quyidagi yo'nalishlardan iborat:

1. Madaniyat va dam olish – O'zbekistonda madaniyatni rivojlantirish va milliy merosni asrash bo'yicha qator NNTlar faoliyat yuritadi. Masalan, "Hunarmand" uyushmasi xalq amaliy san'ati va hunarmandchilikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Ta'lim va tadqiqot – Nodavlat ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar va yoshlar uchun nodavlat grant dasturlari shaklida rivojlanmoqda. Jumladan, "Yosh olimlar" assotsiatsiyasi yosh tadqiqotchilarga ko'mak berib kelmoqda.

3. Sog'liqni saqlash – NNTlar aholi salomatligini yaxshilash, nogironlar va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni qo'llab-quvvatlash bilan shug'ullanadi. Masalan, "Sog'lom avlod uchun" fondi tibbiy xizmatlarning rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

4. Sotsial xizmatlar – Kam ta'minlangan oilalar, yetim bolalar va nogironlar uchun yordam ko'rsatadigan tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. "Mehribonlik" uylari, "Mahalla" jamg'armasi shular jumlasidandir.

5. Atrof-muhitni himoya qilish – "Ekosan" kabi ekologik NNTlar atrof-muhitni muhofaza qilish, suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash kabi muhim masalalar bilan shug'ullanadi.

6. Lokal hamjamiyatlarni rivojlantirish – Mahalla tizimi fuqarolik jamiyatining muhim bo'g'ini bo'lib,

mahallalarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotda ishtiroki oshirilmoqda. "Mahalla" jamg'armasi bu yo'nalishda yetakchi o'rin egallaydi.

7. Inson huquqlarini himoya qilish – O'zbekistonda inson huquqlari bo'yicha markazlar, xususan, "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy markazi" faoliyat yuritadi.

8. Filantropik uchun vositachilik qilish – Turli xayriya jamg'armalari, masalan, "Oltin meros" fondi madaniy obidalarni saqlash, ta'lim va sog'liqni saqlash sohasida yordam ko'rsatishga xizmat qilmoqda.

9. Xalqaro hamkorlik – O'zbekiston xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali fuqarolik jamiyatini rivojlantirishni rag'batlantirmoqda. Masalan, BMTning Taraqqiyot dasturi (UNDP) doirasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda.

10. Diniy tashkilotlar – O'zbekistonda diniy NNTlar asosan ma'rifiy yo'nalishda faoliyat olib borib, yoshlarni axloqiy tarbiyalash va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

11. Kasbiy uyushmalar va kasaba uyushmalari – Ishchilar va mutaxassislar manfaatlarini himoya qiluvchi kasaba uyushmalari faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi bu borada yetakchi tashkilotlardan biri hisoblanadi.

12. Boshqa yo'nalishlar – Ijtimoiy innovatsiyalar, axborot texnologiyalari va startap ekotizimi yo'nalishida faoliyat yurituvchi nodavlat tashkilotlar ham shakllanmoqda.[5]

Mazkur loyiha mezonlari doirasida 35 ta mamlakatda (16 ta rivojlangan, 14 ta rivojlanayotgan, 5 o'tish davri iqtisodiyotini o'z boshidan kechirayotgan) NNTning strukturasi, hajmi, ular faoliyatidagi muammolar va natijalarga doir tadqiqotlar olib borilib, ularning yakunlari natijasi o'laroq quyidagilar aniqlandi: Bu mamlakatlarda YAIMdagi uchinchi sektor hissasi 1,3 trl. yoki YAIMlar yig'indisini 5,5 % ini tashkil etgan. NNTda deyarli 40 mln. odam (shundan 20 mln. kishi ish haqi olib ishlagan) faoliyat yuritib, bu ko'rsatkich 35 ta mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 4,5 foizini tashkil etgan.[6]

XXI asrga kelib, O'zbekiston BMTning "Dunyoimizni o'zgartirish: Barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi – 2030" dasturini amalga oshirish bo'yicha 193 ta davlat bilan birgalikda qabul qilingan majburiyatlarini izchil bajarishga kirishdi.[1] Ushbu jarayon mamlakat tarixida muhim bosqichlardan biri bo'lib, 2018 yil 20 oktabrda "2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish choralari to'g'risida" va 2022 yil 21 fevralda "2030 yilgacha barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni faollashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hukumat qarorlarining qabul qilinishi bilan yanada mustahkamlandi.

O'zbekistonning o'z taraqqiyot modelini ishlab chiqishi va uni amalga oshirishdagi uzluksiz sa'y-harakatlari mustaqillikdan keyingi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlar orqali namoyon bo'ldi. Xususan, "O'zbekiston harakatlar strategiyasi" (2017-2021 yillar) va keyinchalik "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" (2022-2026 yillar)

davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va fuqarolik jamiyatining rivojlanishi uchun muhim yo'nalishlarni belgilab berdi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining asosiy tamoyili sifatida Prezident farmoni bilan "Inson qadr-qimmati va sha'ni uchun"[8] g'oyasi ilgari surilib, xalq farovonligini oshirish, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirish ustuvor maqsad sifatida belgilandi.

O'zbekiston tarixiy taraqqiyot jarayonida iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash yo'lida muhim qadamlar tashladi. Natijada, 2030 yilga borib mamlakatni o'rtacha yuqori daromadli davlatlar qatoriga kiritish hamda aholi jon boshiga daromadni 4000 AQSh dollariga yetkazish maqsadi belgilandi. Ushbu strategik vazifalarni amalga oshirish uchun mustahkam huquqiy, institutsional va iqtisodiy asoslar yaratildi.

Mazkur milliy model boshqa davlatlar tajribalaridan farqlanib, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u davlatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lida samarali mexanizmlardan biriga aylandi. Shu bois, mahallalar tizimini yanada takomillashtirish va uni jamiyatning har bir jabhasida faollashtirish orqali kelgusida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yanada jadallashtirishga erishish mumkin. Bunda mahallalar jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutib, aholining farovonligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda asosiy institutlardan biri sifatida shakllandi. Shu jihatdan, O'zbekistonning mahalla boshqaruvi modeli ham nafaqat ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash, balki iqtisodiy taraqqiyotga hissa qo'shuvchi omil sifatida ham namoyon bo'lmoqda: "2020-yil fevral oyiga qadar mahallalar davlat tomonidan tashkil etilgan nodavlat tuzilmalar sifatida belgilangan bo'lib, ularning vazifalariga davlat tomonidan taqdim etiladigan manzilli ijtimoiy nafaqalarni taqsimlash kirgan"[7]

Mahallalar jamiyatda nafaqat ijtimoiy birdamlikni saqlash, balki mahalliy boshqaruvni tashkil etish, aholining turmush farovonligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni ta'minlash va qashshoqlikni kamaytirish masalalarini hal etishda asosiy ijtimoiy institut sifatida shakllandi. Bu milliy tarixiy tajriba boshqa davlatlarning tajribalaridan farq qiluvchi o'ziga xos model bo'lib, davlatning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi muhim vositaga aylandi.

Shuningdek, mamlakat boshqaruvida demokratik tamoyillar kuchayib, "ochiq byudjet" tizimi rivojlanmoqda.[9] Mahalliy darajada moliyaviy resurslarning adolati taqsimlanishini ta'minlash maqsadida "mahalliy byudjet" tizimi joriy qilindi.[3] Ushbu tizim orqali aholining real ehtiyoj va talablaridan kelib chiqib, mahalliy hokimiyat byudjet mablag'larini taqsimlashda bevosita ishtirok etishi yo'lga qo'yildi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib, O'zbekistonning barqaror rivojlanish yo'lidagi tarixiy tajribasi mustaqillikdan keyingi islohotlar, milliy institutlarning rivojlanishi va xalq farovonligini oshirishga qaratilgan strategiyalar bilan chambarchas bog'liq. Mamlakat bu borada izchil harakat qilib, o'zining milliy taraqqiyot modelini yanada takomillashtirish ustida ish olib bormoqda.

ADABIYOTLAR

1. Добровольный национальный обзор о реализации национальных целей и задач устойчивого развития Узбекистана до 2030 года (второй)
2. История НКО в США Блог посольства США в Москве <http://embassy-voices.livejournal.com/19048.html>
3. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi "Byudjetnoma 2024-2026", T-2023 yil.
4. Boboqulova, X. (2024). Fuqarolik jamiyati qurish tarixini manbashunoslik asoslari. News of the NUUZ, 1(1.10. 1), 63-65.
5. Гражданское общество: понятие, структура, функции / <http://geum.ru/book/133/532.html>.
6. Санович С. Исследования гражданского общества и НКО в Европе и США (краткий обзор). Материал подготовлен специально для информационно-аналитического портала "Socpolitika.ru"// http://www.socpolitika.ru/rus/ngo/foreign_experience/document4692_print.shtml.

7. Национальная база данных по законодательству Республики Узбекистан. Указ Президента Республики Узбекистан «Об организации деятельности Министерства по поддержке махалли и семьи Республики Узбекистан». <https://lex.uz/ru/>
8. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
9. <https://www.gazeta.uz/oz/2021/07/12/open-budget/>
10. Boboqulova X., Abdullayeva Z., Uzoqova Y. Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati //education and research in the era of digital transformation. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 526-530.